
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori
Internet tarmog‘ida O‘zbekiston Respublikasining Hukumat Portalini
Yanada Rivojlantirish Chora-Tadbirlari To‘g‘risida

(O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘g‘ri plami, 2007 y., 50-51-son, 521-modda; 2009 y., 17-son, 212-modda; 2013 y., 2-son, 23-modda; 2015 y., 26-son, 338-modda; 2016 y., 23-son, 269-modda)

«Axborotlashtirish to‘g‘ri risida»gi O‘zbekiston Respublikasi [Qonunini](#), O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘ri risida» 2005 yil 8 iyuldagi PQ-117-son [qarorini](#) bajarish yuzasidan hamda Internet tarmog‘ida O‘zbekiston Respublikasining Hukumat portalini yanada rivojlantirish maqsadida Vazirlar Mahkamasini qaror qiladi:

(1-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 3 iyundagi 188-sonli [qaroriga](#) asosan o‘z kuchini yo‘qotgan O‘zbekiston Respublikasi QHT, 2016 y., 23-son, 269-modda)

(2-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 3 iyundagi 188-sonli [qaroriga](#) asosan o‘z kuchini yo‘qotgan O‘zbekiston Respublikasi QHT, 2016 y., 23-son, 269-modda)

3. Belgilab qo‘yilsinki, Internet tarmog‘ida O‘zbekiston Respublikasining Hukumat portali xarajatlarini moliyalashtirish, moddiy-texnik ta‘minlash va unga xizmat ko‘rsatish tasdiqlangan smeta doirasida O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligining Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari, shuningdek qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobiga amalga oshiriladi.

(3-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 27 iyundagi 171-sonli [qarori](#) tahririda O‘zbekiston Respublikasi QHT, 2015 y., 26-son, 338-modda)

4. Vazirliklar, idoralar, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari:

bir oy muddatda axborot ro‘yxatlari va taqdim etish muddatlari, shuningdek axborot materiallarini joylashtirishga ruxsat berish va axborot xizmatlari tomonidan Guruhga keyinchalik Internet tarmog‘ida O‘zbekiston Respublikasining Hukumat portalida joylashtirish uchun axborot taqdim etish uchun mas‘ul shaxslarni tayinlash bo‘yicha tadbirlar rejasini ishlab chiqsinlar va tasdiqlasinlar;

(4-bandning uchinchi xatboshi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 21 apreldagi 116-sonli [qaroriga](#) asosan chiqarilgan O‘zbekiston Respublikasi QHT, 2009 y., 17-son, 212-modda)

o‘z rasmiy axborot resurslarining qonun hujjatlari talablariga muvofiqligini bir yilda kamida ikki marta ekspertizadan o‘tkazsinlar.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari A.N. Aripov zimmasiga yuklansin.

O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri Sh. MIRZIYOEV

Toshkent sh.,

2007 yil 17 dekabr,

259-son